



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 7

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

December 2024

WWW.AJERUZ.COM



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
December 2024

Tashkent 2024

**RAUF PARFI LIRIKASIDA TAVBA MOTIVI VA G‘OYAVIYLIK
PRINSIPLARI TALQINI**

Madraximova Inobat Bahodirovna

*CHDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti, Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi
va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada mashhur o‘zbek shoiri Rauf Parfining ijodiy merosida tavba va inson ruhiyati masalalariga bag‘ishlangan she‘rlaridan biri tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada tavbaning falsafiy va tasavvufiy talqinlari, Imom G‘azzoliy qarashlari bilan bog‘liq ravishda tahlil qilinadi. Shoirning davr ta‘sirida shakllangan ramziy va majoziy obrazlari, hayot va o‘lim ziddiyatini anglatuvchi falsafiy ko‘rinishlar o‘quvchi qalbiga yaqin uslubda namoyon etiladi. Ushbu maqola Rauf Parfi ijodining o‘ziga xos tomonlarini ochib berishga va uning badiiy falsafasini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Rauf Parfi, tavba, imon, oxirat, tasavvuf, falsafiy she‘riyat, Imom G‘azzoliy, hayot va o‘lim, poklanish, inson ruhiyati, badiiy talqin.

Qo‘liga qalam olib, Alloh va uning Qur‘oniga e‘tiqod qilib, bilib-bilmay qilgan gunohlaridan aziyat chekib, “tavba” qilishi bu har bir bandaning hayot yo‘lida bo‘lishi tabiiydir. Chunki tavba – insonni gunohlardan poklaydi. Buning uchun imon va e‘tiqodni mustahkam ushlab, itoat qilgandagina bandaning tavbasi qabul bo‘lishi tayin. She‘r yozuvchi, nasrda nimadir bituvchi ijodkor zoti ham o‘z anglamlarini, o‘zgalarga, zulm va zo‘ravonlik qilganlarni tushuntirishda – tavbani chetlab o‘tib, biror narsa yozmasdan bu dunyoni tark etmagan. “Alloh taolo “Furqon” surasida: “Magar kim tavba qilsa, imon keltirib, solih amal qilsa, bas, Alloh ana o‘shalarning yomonliklarini yaxshiliklarga almashtirur. Alloh mag‘firatli va rahmli bo‘lgan zotdir”, degan”¹. Binobarin, tavbaning turlari ko‘p, ehson ham, sadaqa ham, ibodat ham tavbaning turlarini yodimizga soladi. Boshinga musibat tushsa, Allohni ko‘p zikr etasan degan hikmatlar ham shodlik tushsa unutasan degan ziddi ham mavjud. O‘zbek shoiri Rauf Parfining “Tavba” yo‘sinida yozilgan qator she‘rlarida – o‘lim va oxirat, kuz va o‘tkinchi hayot zamirida xilma-xil obrazlar badiiyatini ko‘ramiz. Shoir qanday mavzuga qo‘l urmasin, ruhiyatidagi kemptiklikni bir dam bo‘lsin, nazardan chekkaga chiqara olmaydi. U tavbani xilma-xil shakllarda ifodalay olganida ana shu mavzular yorqin ranglarda namoyon bo‘ladi:

“Dodimni eshitgil, qodir Allohim,
Ishq sensan, oshiq ham sen, men qulingman,
Loyiqman qahringga, do‘zaxim-bog‘im,
Omonat devorman, o‘tman qulingman.
Rub‘i maskun ichra sayyod, o‘zim sayd,
Ortiq madorim yo‘q, voqifsan axir.
Manglayda yozilgan farmoningni ayt,

¹ Манба: <https://islom.uz/maqola/1181>

Da'vat qil, gunohkor bandangni chaqir.

Shuni qayd etish lozimki, Rauf Parfining “Iymon asiri”, “Tavba she'rlari” umrining oxirgi yillarida yozildi. Shoir jamiyatga, odamlarga so'nggi bora unchalik qo'shilib, singib keta olmadi. Chunki hayotdan, atrofdagi sotqin, zaif va qo'rqolardan tortgan zumlari shoirni ruhan o'stirdi. Bu o'sish mantiqan chuqurlashdi. Falsafiy idrok esa o'zgardi. Komillik yo'lidagi nola qilayotgan darveshona yashash shoirni ma'nan tarbiyaladi. O'zgalarga sog'ingan yaxshiliklari evaziga Allohning nusrati va siyratiga talpindi. Muqaddas kitoblarda bayon qilinganidek, shoir – oxirat ilmidan voqif bo'lishga o'zini ruhan, jisman tayyorladi. Bunday tayyorgarlik so'fiylar, tariqat peshvolarida – to'rtta bosqichni tayin qilsa, Rauf Parfi modernistik, realistik usulda obrazli talqin etgani hech kimga sir emas. Albatta, shoir umrining oxirida yozgan – tavba mazmuni aks etgan qator soyentlar guldastasini yaratdi. Ushbu sonet ham shular sirasiga kiradi. Sonetning keyingi misralariga e'tibor beramiz:

Iymon ber ruhimga, jismimga jon ber,
Loyimni qorishtir, poklab ber menga.
Ojiz tomirimga pokiza qon ber,
Ravshan qil, qoramni oqlab ber menga.
Oxirat ilmidan qil meni ogoh,
Murodim sha'mimni so'ndirma, Alloh”²

Tarixning eng qiyin damlarida – o'zlikni anglash, sobiq zulm saltanatining mashinalarida yanchilib, sinib, yo'q bo'lib ketish hech gap emas edi. Rauf Parfi ayni shu manzarani tartiblashtirib, badiiy g'oyani yanada teran anglatmoqda. O'quvchi bu she'rni istagancha tushinishi mumkin. Ixcham idrok falsafiy intellektual kayfiyatni yuzaga chiqishida yanada o'ziga xos tarzda yaxitlik kasb etmoqda.

Rauf Parfi – tavba turkumidagi she'rlarida buyuk mutafakkir Imom G'azzoliy qarashlarini puxtalik bilan yangi moduslarda ifodalay olganligi yaqqol namoyon bo'lgan. Chunki Rauf Parfi avlodi – sho'rolar taqiqlagan davrda yashadi. Tasavvufni chuqur bilish va o'rganish borasida ota bobolaridan so'rab-surishtirgani sir emas. Ayni bu haqda o'zlarining suhbatlarida ham keltirib o'tadi. Imom G'azzoliy niyat masalasida ham o'ziga xos fikrlar bildiradi. U niyatni ikki narsa – bilish va harakat qamrovidagi sifati deb ta'riflaydi. Bilish niyatdan oldin turadi. U niyatning ildizi va sharti hisoblanadi, harakat esa niyatdan keyin voqea bo'ladi. Uni niyatning mevasi va butog'i, deyish mumkin. Har bir erkin tanlangan harakat uch narsa – bilish, ixtiyor etish va qobiliyat yordamida ro'yobga chiqadi. Zero, inson bilmay turib – xohlamaydi, xohlamas ekan, harakat qilmaydi; shuning uchun ixtiyor etmoq lozim. Ixtiyor etish hodisasi yuz bergandagina

² Рауф Парфи. Зангори товушлар. –Т: “Адиб”. 2023. –Б.107-108.

navbat qobiliyatga keladi va qobiliyat inson a'zolarini harakatga tushirishga kirishadi. Demak, niyat o'rtalikdagi sifatdir³.

Haqiqatdan ham, niyatning harakati va uning ijrosi, yuzaga chiqish sifatlari, maqsadi aniq bo'lishi muhim. Rauf Parfi ham – butun jism va ruhimni poklab ber, yuragimni oqlab ber, deb bekorga tavba-tazarro qilayotgani yo'q. Albatta, bu she'rlar umrning to'rtinchi fasli – kuzda yozilgan. Shoir o'zi kuz faslida tug'ilgan. Ko'pchilik she'rlarida xazon va ayriliq, vido, hasrat mavzulari yangicha shaklda ifodasini topganini hech bir adabiyot olimi inkor qilolmasa kerak deb, o'ylaymiz:

So'nmas ruhimizda matonat aslo,
Ajdodlar sharafi abadiy yashar.
Mukarram ziyosan, ey turkiy Dunyo,
Qo'llagil, Allohim, qo'llagil Bashar,
So'nmas ruhimizda matonat aslo⁴.

Ushbu she'rda mavjudlik haqida juda o'tkir falsafiy tuyg'ular aks etgan. Ruhimizdagi matonat mavjud ekan, Alloh o'zingdan boshqa najot yo'q, qo'llagil deb, tavba qilmoqda. Iltijoning mohiyatida o'sha o'lmas manzara aks etganki, hech qanday uning og'riqli tomonini ko'rmagandek, o'zgalarni ham iltijoga kamarbasta qiladi. Chunki shoir o'z davridan ancha oldinga ilgarilab ketgandi. Turki dunyosi birligi yo'lida birlashmoq joizligini ushbu she'rda ham sezish qiyinmas. Allohning mehribonligi va rahm qilishini ko'pchilik unutgan zamonda esiga solib qo'yish ham muhabbatning oliy ko'rinishi deya izohlaydi shoir.

Prof I. Haqqulov qayd etishicha: "Inson bu dunyoning ko'p sirlarini bilmasligi, qanchadan-qancha haqiqatlar bilan qiziqmasligi mumkin. Lekin u o'zining yaralishi, ruhiy va axloqiy hayoti, komillika yuksalish asoslari, tub mohiyatiga yetib bormoq behad qiyin bo'lgan taqdiri haqida imkon qadar fikr yuritishi zarur. Shu malaka shakllantirilmasa, odam ma'nadan cho'loqlanib, bir umr o'z ahvolini to'g'ri mushohada etolmay, boshqa bir joy yo manzillarda emas, qorong'ulik eagalagan botinida adashib, sudralib, nimaga yashayotganini ham aniq anglolmay yuraveradi. Dunyodagi eng katta baxtsizlik ham shu! Hayotdagi turfa-turfa fojia, kulfat va musibatlarning tub asosi ham mana shu layoqatsizlik va nochorlikdir. O'zining tabiati, mavjudligi, yanada aniqrog'i, nafi, ruhi, qalbi va axloqi borasida nisbatan aniq tasavvur hosil eta olgan kishi ma'nisizlik botqog'iga botishdan har qalay saqlanadi"⁵.

³ Абдулла Шер. Абадият ва умр. –Т: "Файласуфлар нашриёти". 2017. –Б.66.

⁴ Кўрсатилган шеърлар, -Б.103.

⁵ Хаққулов И. Талант – жасрат жавҳари. –Т., "Мухаррир". 2018. –Б.156.

Darhaqiqat, Rauf Parfining o‘zquvchi yoki shoirlarga oshin qalblarni chorlashi, Allohni tanishga yetaklashi sir emaskim, 60-yillarda ramziy-majoziy talqinda obrazlarga boy bo‘lib yaratildi. Erkni va haqiqatni bayroq qilib, O‘zbekiston, balki ulug‘ Turkiston yodi bilan yonib-yashadi. Ularni ayni shu jarayonda o‘zining muhabbati bilan ardoqladi. Lekin tuzum bunday xos ijodkorlarga imkon bermasdi. Stalin vafotidan keyin bir qadar ilqlik damlari boshlangani bilan, ittifoqdagi kechayotgan g‘alayonlar bunga izn bermasdi. Shunday qaltis vaziyatda Alloh so‘zi va yodi bilan yonib-yashab ijod qilish uchun katta jasorat kerak bo‘ladi. Davrning ilmiy lahzalari har qanday ijod kishisini yuksaklikka chorlashi tayin. Buni hech bir ijodkor chetlab o‘tgan emas!

Umuman, har ikki ijodkor yaratqilarida – g‘oyavilik va matn poetikasi o‘ziga xoslik kasb etadi. U.Azimning ijodiy izlanishlarida talqin yaxlitligi kuzatilsa, Rauf Parfida obraz tovlanishlari birinchi planga chiqadi. Shuning uchun ham, har biri o‘ziga xos olamdagi metaforalarni kulaydi. Intilgan va yuksalgan hayotiy aqidalari ayni paytda, muhabbat bilan payvandlangan. Kuchli tragik dramatizm – o‘lim va hayot ziddiyati har ikki shoirni katta maqsadlar sari olib chiqa olganligi fikrimiz dalilidir. Bunday vaziyatda insonning yuz olami bashariyat va Allohga muhabbati teran manzarali kayfiyatni tortiq qilishi tayin. Chunonchi mag‘lub va muzafarrlik shoir taqdirida bor narsa. Tavba va istig‘for esa olamni bilishga katta imkon. Allohning rahmati va shafqati ham – kuz badiiyatida jilvalanishi shundan bo‘lsak kerak, zero, inson bilishga ishtiyoqman. Undan esa faqat go‘zal tuyg‘ular yaralishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рауф Парфи. Зангори товушлар. –Т: “Адиб”. 2023. –Б.107-108.
2. Абдулла Шер. Абадият ва умр. –Т: “Файласуфлар нашриёти”. 2017. –Б.66.
3. Ҳаққулов И. Талант – жасорат жавҳари. –Т., “Мухаррир”. 2018. –Б.156.
4. Madrakhimova, I. (2023). THE INTEGRITY OF TRANSFORMATIONAL IDEAS CARRYING IMAGERY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(6), 137-143.
5. Madraximova, I. B. (2023). YOMG ‘IR OBRAZINING RAUF PARFI LIRIKASIDA AKS ETISHI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 13, 264-267.
6. Madrakhimova, I. B. (2024). METHODIST CHARACTERISTICS OF THE AUTUMN IMAGE (IN THE EXAMPLE OF RAUF PARFI'S CREATION). *IMRAS*, 7(7), 186-190.
7. Zamidova, K., & Madraximova, I. B. (2024). INTERFAOL O ‘QITISH USULLARINING NAZARIY ASOSLARI. *PEDAGOG*, 7(4), 689-692.
8. Bakhadirovna, M. I., & Marjona, P. (2024). SKILLS OF TEACHING POEMS IN CLASSES. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(5), 9-13.

9. Мадрахимова, И. Б. (2023). KUZ OBRAZINING TRINAR TALQINI: Madraximova Inobat Bahodirovna Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (10), 35-38.

10. Madraximova, I. B., & Muminov, Z. S. (2022). Abdulla Qahhor hikoyalarida ruhiyat tasviri. Заманагөй тәлим хәм тәрбия технологиялары, 1(1), 358-359.

11. Мирзорахимов, О. К., & Мадрахимова, И. Б. (2022). Ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мактаб ва оиланинг аҳамияти. Academic research in educational sciences, 3(2), 385-389.

12. Madrakhimova, I. B. (2022). The interpretation of autumn in the poetry of Usman Azim. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 336-340.

13. Bahodirovna, M. I. (2022). The image of human and animals in the stories of normurad norkobilov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 243-245.



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
7-son

Nashr qilingan sana: 27.12.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172